



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2023 - yil « 2 » may 120 -son

**Toshkent shahri**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining**  
**2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son qarori**  
**ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-115-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-115-son qarorida belgilangan vazifalar ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov), Talaba va o‘quvchilarning ma’naviy yuksalishiga ko‘maklashish markazi (R.Hudayberganov):

O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi (E.Qodirov) bilan hamkorlikda 2023 – 2024 o‘quv yilidan boshlab har yili uzluksiz tarzda sentabr — may oylarida oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston talabalar sporti assotsiatsiyasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan “Talabalar ligasi” dasturi doirasida uch bosqichli respublika futbol musobaqalarini o‘tkazsin, bunda, “Talabalar ligasi” sport musobaqalari oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan sport klublar jamoalari o‘rtasida o‘tkazilishi inobatga olinsin;

bir hafta muddatda O‘zbekiston talabalar sport assotsiatsiyasi va O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan kelishgan holda futbol va futzal sport musobaqalarini o‘tkazishni nazarda tutuvchi yagona tartibni ishlab chiqsin;

sport musobaqalarini samarali tashkil etish va o‘tkazish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni ko‘rib chiqish va bartaraf etish uchun apellyatsiya komissiyasini shakllantirsin.

3. Axborot xizmati boshlig‘i-matbuot kotibi (N.Abduqunduzova), Talaba va o‘quvchilarni ma’naviy yuksalishiga ko‘maklashish markazi direktori (R.Xudoyberganov) “Talabalar ligasi” sport musobaqalarining hududiy saralash

va respublika final bosqichlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish, o'zbek, rus, ingliz tillarida tayyorlangan video-roliklarni vazirlik va oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi kanallariga, shuningdek, veb-saytlarga joylashtirishni ta'minlasin.

4. Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish boshqarmasi (Sh.Ne'matov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son qaroriga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining reytingini aniqlash mezonlariga futbol va futzal sport turi bo'yicha "Talabalar ligasi" musobaqalarida oliy ta'lim muassasalari talabalarining ko'rsatgan natijalari inobatga olinishini nazarda tutsin.

5. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlariga:

bir oy muddatda davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning moddiy-texnika bazasidan kelib chiqib, futbol bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi seksiyalar faoliyatini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalaridagi mavjud sport inshootlari va futbol maydonlarining doimiy faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, har bir davlat oliy ta'lim muassasasining futbol va futzal bo'yicha jamoalarini shakllantirish hamda ularning "Talabalar ligasi" dasturi doirasida o'tkaziladigan respublika musobaqalarida to'liq ishtirok etishini ta'minlash hamda sport musobaqalari oliy ta'lim muassasalari sport klublari o'rtasida o'tkazilishini inobatga olib, sport klublarini moliyalashtirish oliy ta'lim muassasasining yillik sarf-xarajatlari smetasiga kiritish;

oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan sport klublari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4391-son qaroriga muvofiq to'liq moliyalashtirish;

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 542-son qaroriga muvofiq sport klublari tashkil etilmagan oliy ta'lim muassasalarida sport klublari faoliyatini to'liq tashkil etish va moliyalashtirish choralarini ko'rish;

sport klublarida futbol va futzal sport turlari bo'yicha sport seksiya va to'garaklar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish hamda sport mashg'ulotlari jadvalini shakllantirish hamda oliy ta'lim muassasalaridagi sport klublarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va trener-o'qituvchilar bilan ta'minlash, o'quv mashq jarayonining sifati ustidan nazorat qilish, sport mashg'ulotlari muntazam o'tkazilishi va talabalar qatnovi darajasi monitoringini tizimli asosda olib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari va filiallar direktorlari sport klublarining to'liq va samarali faoliyat yuritishiga shaxsan mas'ul etib belgilansin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari S.Buzrukxonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I.Abduraxmonov

**NUSXA  
ASLIGA TO'G'RI**